



UDK: 930.25(575.1)

Olimaxon ASADOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

O'zMU Tarix fakulteti t.f.f.d. (PhD) R.R.Duschanov taqrizi asosida

O'ZBEKISTON MILLIY ARXIVI O'TMISHI VA BUGUNI

Annotatsiya

O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlar O'zbek xalqining tarixiga ta'luqli bo'lgan o'tmishdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlarini yoritib beruvchi yozma hujjatlar majmuidir. Bunda noyob, o'ta qimmatli va maxfiy hujjatlar saqlanadi. Hujjatlarining saqlanishida ularga tashqi ta'sir qiluvchi omillar mavjudligi hamda har bir hujjatni ekspert komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi ham katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: "O'zarxiv", hujjat, ekspert, milliy, arxiv, teri, kalka, qog'oz, noyob, o'ta qimmatli, maxfiy, kino, foto, fono, harorat, namlik, raqamlashtirish, skaner.

ПРОШЛОЕ И НАСТОЯЩЕЕ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Документы, хранящиеся в Национальном архиве Узбекистана, представляют собой собрание письменных документов, освещающих политические, экономические, социальные и культурные системы узбекского народа в прошлом. В нем хранятся уникальные, чрезвычайно ценные и секретные документы. Большое значение имеет также наличие внешних факторов, влияющих на сохранность документов, и рассмотрение каждого документа экспертной комиссией.

Ключевые слова: "Узархив", документ, эксперт, национальный, архив, кожа, калька, бумага, редкий, особо ценный, секретный, кино, фото, фono, температура, влажность, оцифровка, сканер.

PAST AND PRESENT OF THE NATIONAL ARCHIVE OF UZBEKISTAN

Annotation

The documents kept in the National Archives of Uzbekistan are a collection of written documents highlighting the political, economic, social and cultural systems of the Uzbek people in the past. It contains unique, extremely valuable and secret documents. Of great importance is also the presence of external factors affecting the safety of documents, and the consideration of each document by an expert commission.

Key words: "Uzarxiv", document, expert, national, archive, leather, tracing paper, paper, rare, especially valuable, secret, cinema, photo, phono, temperature, humidity, digitization, scanner.

Kirish. Tariximizni o'rganmay, bilmay turib, yangicha yashashni, hayot tarzimizni o'zgartirishimizni, zamonga, buyuk ajdodlarimizga mos avlodni tarbiyalashimizni amalga oshirish qiyin bo'ladi. Shuning uchun arxivga e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Davlatimiz tomonidan arxivlarga azaldan, har bir davrda o'ziga yarasha, imkoniyat doirasida g'amxo'rlik qilib kelingan. Maxsus binolar ajratilgan, ish sharoiti yaratib berilgan. Arxiv hujjatlarini asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish bo'yicha juda ko'p ishlar qilinmoqda. O'zbekiston Milliy arxivida hujjatlar, nafaqat qadimiyligi, balki tuzilishi (uzunligi va kengligi), asosi (teri, kalka, qog'oz va boshqalar), shakllanishi (naqshinkorligi, rangli tularida berilganligi) bilan alohida qiziqish uyg'otadi.

Har bir tashkilot yoki muassasaning tashkil topish tarixi bo'lganidek, O'zbekistonda arxiv tizimi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u qadimgi davrga borib taqaladi bunda hukmdor saroyida xazina bilan bir joyda saqlanganligi bejiz emas. Turkiston ASSR Markaziy ijroiyo Qo'mitasining 1919-yil 5-noyabrdagi "Arxiv ishini qayta tashkil etish va markazlashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq respublikamizda arxiv xizmati shakllangan. Mazkur hujjatning qabul qilinishi orqali arxiv hujjatlarini maxsus muassasa tomonidan tartiblashtirilgan holda jamlash va saqlashni amalga oshirishiga asos solingan[1].

Hozirgi kunda respublikamizda eng yirik davlat arxivlaridan biri bu O'zbekiston Milliy arxividir. Bu arxiv 1958-yilda tashkil etilgan. Uning binosi maxsus loyiha asosida 1964-yilda qurilgan va 1-avgustdan ishga tushirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi o'zbek xalqining qo'lyozma hujjatlari saqlanadigan eng katta va boy arxiv xazina hisoblanadi.

1959-yil 24-iyunda "O'zSSR Ichki ishlar ministrligi Arxiv boshqarmasining Markaziy davlat arxivi va markaziy hamda viloyat arxivlari tarmog'i tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, O'zSSR MDA tarkibi quyidagi ikkita bo'lim tuzilishi bilan kengaydi:

foto-fono-kino hujjatlar;
mikro-foto-nushalash va ta'mirlash.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1961-yil 9-maydagi qaroriga ko'ra, Arxiv boshqarmasi Ichki ishlar ministrligi tarkibidan respublika Ministrlar Soveti tasarrufiga o'tkazildi. Shu tariqa, Qoraqalpog'iston ASSR, Toshkent shahri va viloyatlar arxivlari tegishincha Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti, Toshkent shahri va viloyatlar ijroiyo qo'mitalari huzuridagi arxiv boshqarmalariga aylantirildi.

1964-yil O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining buyrug'iga ko'ra, O'zbekiston MDA boshlig'i lavozimi direktor deb o'zgartirildi. Shu yili 2 mln hujjatni o'zida jamlovchi to'rt qavatli arxiv binosi ishga tushirildi. MDA yangi binoga ko'chib o'tishi munosabati bilan unga qo'shimcha 20 shtat birligi ajratildi.

Hozirgi kunda milliy arxivda 104 ta xodim faoliyat olib boradi.

1967-yil 2-yanvarda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining buyrug'i bilan respublika MDA tuzilmasiga

o'zgartirish kiritildi. Unga ko'ra, hisobga olish va ilmiy-ma'lumotnoma apparati bo'limi ikkiga ajratildi:

- hujjatli materiallarning ilmiy-ma'lumotnoma apparati va hisobga olish bo'limi;
- fondlarni saqlash bo'limi.

1974-yilda kinofotofono hujjatlar bo'limi O'zbekiston MDA tarkibidan chiqarilib, O'zSSR Kinofotofono hujjatlar MDAGA aylantirildi. 1977-yilda O'zbekiston SSR MDA tarkibiy tuzilmasiga qator o'zgartirishlar kiritilgan.

Hozir kunga kelib yurtimizda "O'zaxxiv" agentligi tizimida 3 ta milliy arxiv, 14 ta arxiv ishi hududiy boshqarmasi va ular tizimida 101 ta viloyat, shahar, tuman davlat arxivlari 123 ta shaxsiy tarkib hujjatlar davlat arxivlari faoliyat yuritmoqda. Jami bu arxivlarda 16 million saqlov birligidan ziyod arxiv hujjatlar saqlanib kelinmoqda[2].

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondida yurtimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga taalluqli qariyb 1,8 milliondan ortiq hujjatlarni saqlanib kelinmoqda. Bulardan alohida qimmatli hujjatlar soni 500 000 yig'majildan iborat[3].

1991-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zR MDA) deb nomlandi. O'zR MDA fondlarida milliy bo'linishga qadar Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekistonning bir qismi kirgan, Turkiston tarixiga oid hamda O'zbekiston tarixini aks ettiruvchi hujjatlar saqlanib kelmoqda.

2019-yildagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining 5834-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" bo'lib unda, arxiv ishi va ish yuritish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadallik bilan joriy etish, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish va sug'urta nusxalarini yaratish, arxiv hujjatlarini maxfiylikdan chiqarish ishlarini faollashtirish orqali arxiv axborotlaridan foydalanuvchilar sonini kengaytirish, arxivlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanishning zamonaviy usullarini joriy etish nazarda tutilganligi bejiz emas[4]. Oradan 28 yil o'tib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi "O'zbekiston Milliy arxivi" deb o'zgartirildi. Milliy arxivni O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan tashkil etiladi.

Keyingi yillardagi islohotlar natijasida arxiv sohasiga kadrlar masalasining yetishmasligi sababli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Bunda "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" bo'lib, unda sirtqi ta'limning o'zi ikkiga bo'linishi sirtqi va maxsus sirtqi qilib ko'rsatilgan[5]. Oliy o'quv yurtlarida arxivshunoslik yo'nalishi bo'yicha sirtqi ta'limning tashkil etilishi buning isboti hisoblanadi. Har bir sohaning o'z mutaxassisi bo'lgani, shu sohaning rivojlanishi uchun kadrlar masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Arxivlarda hujjarlarni saqlash, foydalanishning yangi usullari, jumladan, raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'tgan davr mobaynida arxiv ishi va ish yuritish sohasida zarur infratuzilma yaratildi, arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishda ijobiy natijalarga erishildi hamda muayyan intellektual va texnologik salohiyat shakllantirildi, Milliy arxiv fondi O'zbekiston xalqining moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlar bilan boyitildi.

O'zbekiston Milliy arxivining boshqa arxivlardan farqi shundaki, bunda saqlanayotgan hujjatlar O'zbek xalqining tarixiga ta'luqli bo'lgan o'tmishdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlarini yoritib beruvchi yozma

hujjatlar majmuidir. Shuni alohida aytish kerakki, arxivlar manbalar to'plami sifatida ilmiy izlanish maqsadlari, davlat boshqaruvining, alohida shaxslarning, jamoat tashkilotlarining ehtiyojlariga xizmat qiladi. Arxiv hujjatlaridan foydalanish – bu tarixchi izlanishining poydevori hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishida arxiv ma'lumotlari katta ahamiyatga egadir[6].

O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlar tasnifi uchta tarixiy davrga tegishli hujjatlar saqlanadi.

Ular:

"I" – Tarixiy davr hujjatlar (1917-yilgacha bo'lgan davr)ni o'z ichiga oladi.

"R" – Sovet davri hujjatlar (1917-yildan 1991-yilgacha) bo'lgan davrni tashkil etadi.

"M" – Mustaqillik davri hujjatlar (1991-yildan to hozirgi kungacha bo'lgan davr)ni qamrab oladi. Hozirgi kunda arxivda 3979 mingdan ziyod fondlar saqlanib, ulardan 200 ga yaqini fuqarolarning shaxsiy fondlari kiradi[7]. Shaxsiy fondlar arxiv hujjatlarining 5 % dan ko'prog'ini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini saqlovchi muassasa sifatida 2003-yil 22-yanvarda davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Bu yerda saqlanayotgan hujjatlar tarixiylik bo'yicha vaqfnomalar bo'lib, hujjatlar IX asrdan to hozirgi kungacha saqlanmoqda. Tarixiy davr hujjatlar milodiy 898-1917 yillar inqilobigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bunga misol qilib Vaqf hujjatlarida bayon etilgan ma'lumotlarning eng qadimiysi IX asrga oidligini bilib olishimiz mumkin[8].

Bugungi kunda arxiv sohasiga axborot-texnologiyalarni keng joriy etish, qog'oz asosdagi hujjatlarni raqamlashtirish ishlarini olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Arxivda saqlanayotgan alohida qimmatli va noyob 20 568 s.b.dagi yig'ma jildlarning 1 322 479 ta hujjatlar raqamlashtirilgan.

Bugungi kundagi arxiv sohasidagi asosiy masalalardan biri hujjatlarni saqlash dolzarb hisoblanadi. Bunda qog'oz, kino, foto, fono va boshqa hujjatlarni saqlashda arxiv binolari va xonalarida maqbul (me'yoriy) yong'inga qarshi, qo'riqlash, harorat va namlik, yorug'lik, sanitariya-gigiyenik sharoitlar yaratilishi lozim. Havo almashinish tizimlari bilan jihozlangan qog'oz asosidagi arxiv hujjatlar saqlanadigan arxiv saqlovxonalarida me'yoriy harorat va namlik ta'minlanadi bular: harorat 17 - 19 °C, havoning nisbiy namligi 50 - 55% oshmasligi yoki shundan past bo'lmasligi belgilangan.

Hujjatlarni saqlash muddatlari ham turlicha bularni 3 turga bo'lish mumkin qisqa muddatli 10 yilgacha, uzoq muddatli 10-yildan 75 yilgacha va doimiy saqlanadigan hujjatlar hisoblanadi.

So'nggi davrlarga kelib arxiv hujjatlarining ahamiyati ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu faqatgina O'zbekistonda emas balki butun dunyo mamlakatlarida bo'lib turgan hodisa hisoblanadi. Buning asosiy sababi esa aholining axborotga bo'lgan talabining oshib borayotganidir. Shu sababdan jahon mamlakatlarida arxiv hujjatlarining saqlanishi ulardan samarali foydalanishni tashkil etish uchun ko'plab ishlarini amalga oshirilmoqda.

Kelajak avlodga bugungi kun haqida munosib axborot qoldirish davlat arxivlariga hujjatlarining avvalo jamlanishiga, bu esa albatta tashkilot va muassasalardagi ish yuritishni to'g'ri tashkil qilish va ijro nazoratini talabchanlik asosida qat'iy amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq[9].

Arxiv hujjatlar alohida saqlash tartibi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: maxfiy; noyob va alohida qimmatli; o'zida yoki ilovalarida qimmatbaho metalga va toshlarga ega bo'lgan; nitroasosda bo'lgan; biologik zararkunandalar shikast yetkazgan; arxivga depozitar saqlash uchun shartnoma asosida berilgan va MAF tarkibiga kiritilmagan hujjatlar hisoblanadi[10].

Xulosa. Tarixiy manbalarning o'ziga xos turini tashkil etgan va turli tarixiy davrlarda vujudga kelib, sivilizatsiyalar tarixiga doir ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan yozma manbalarning alohida o'rni bor. Ularning yaratilishi qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi vaqtga qadar kechgan jarayonlar bilan bevosita bog'liq. Yozma manbalar sirasiga rasmiy hujjatlar, qo'lyozmalar, olimlarning asarlari, xo'jalik va turmushga, fan va texnika sohalariga oid barcha yozma ma'lumotlar kiritiladi. Bulardan arxiv hujjatlari alohida

qimmatli va noyob hisoblanadi. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bu – hujjatlarni saqlash va undan foydalanish hamda arxiv, kutubxona va muzeyda saqlanayotgan hujjatlarni raqamlashtirilsa tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi, hujjatlarning asl nusxasi yanada ko'proq saqlanishi imkonini beradi. Saqlanayotgan hujjatlar qadimiyligi bilan emas, o'sha davrdagi voqealarning aniq yoritib berilishi bilan noyob hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Yusupov U., Aliyev A. O'zbekiston arxivlari – Toshkent. Tasvir, 2011.
2. Kamolov Y. Arxiv - tarix ko'zgusi: Arxiv ishi va ish yuritishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. - F.: "Farg'ona", 2021.
3. Is'hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. -T.: 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentabrdagi F-5834-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4523373>
5. <https://lex.uz/docs/-3420313?ONDATE=23.11.2017%2000#-3422087>
6. Alimov I.A. Arxivshunoslik. -T.: 2005.
7. Yusupov U., Aliyev A. O'zbekiston arxivlari – Toshkent. Tasvir, 2011.
8. Arxivshunoslik. Darslik – T.: "Turon-Iqbol", 2018.
9. Kamolov Y. Arxiv – tarix ko'zgusi: Arxiv ishi va ish yuritishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. - F.: "Farg'ona", 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-fevraldagi 68-son qarori. "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/-5291992>



Marifat KAZAKOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘zMU professori O.Musayev taqrizi asosida

**“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASINING XOTIN-QIZLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI
OSHIRISHDA “AYOLLAR QANOTI” (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Buxoro viloyat Kengashi “Ayollar qanoti” tomonidan xotin-qizlarning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy bilimlarini oshirish, ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, yosh ayollarni milliy an’analar va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan oilaviy hayotga, barkamol onalikka tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Partiya, milliy an’analar, Buxoro, xotin-qizlar, ma’naviy salohiyat, ijtimoiy-siyosiy faollik.

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ «ЖЕНСКОГО КРЫЛА» В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН И
ДЕВУШЕК ДЕМОКРАТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ «НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОЗРОЖДЕНИЕ» (НА ПРИМЕРЕ
БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Аннотация

В данной статье “Ayollar qanoti” Бухарского областного совета Демократической партии “Milliy tiklanish” Узбекистана ставит своей целью повышение правовых, экономических и политических знаний женщин, повышение их духовного потенциала, воспитание девушек на основе национальных традиции и духовные ценности, будет рассказано о проводимой работе по подготовке к семейной жизни и совершенному материнству.

Ключевые слова: Партия, национальные традиции, Бухара, женщины, духовный потенциал, общественно-политическая активность.

**THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF “WOMEN'S WING” IN INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN
AND GIRLS OF THE “NATIONAL REVIVAL” DEMOCRATIC PARTY OF UZBEKISTAN (IN THE CASE OF
BUKHARA REGION)**

Annotation

The article deals with the “Ayollar qanoti” of the Bukhara Regional Council of the Democratic Party “Milliy tiklanish” of Uzbekistan aiming to increase the legal, economic and political knowledge of women, increasing their spiritual potential, educating girls on the basis of national traditions and spiritual values, furthermore it describes ongoing work on preparation for family life and perfect motherhood.

Keywords: Party, national traditions, Bukhara, women, spiritual potential, social and political activity.

Kirish. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlashga O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning faoliyati, ayniqsa ahamiyatli bo‘lmoqda. Ushbu maqolada ham 2008-yildan xotin-qizlarda o‘zini o‘zi anglash tuyg‘usini mustahkamlash, ularning ijtimoiy mavqelarini ko‘tarish; yosh xotin-qizlarni milliy an’analar va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan oilaviy hayotga, barkamol onalikka tayyorlashda O‘zMTDP Buxoro viloyati Kengashining “Ayollar qanoti” tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan ishlar haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Mavzuga oid manbalar va adabiyotlar tahlili. Alohida kichik tadqiqot sifatida o‘rganilayotgan ushbu mavzuni yoritib berish uchun “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Buxoro viloyati kengashi joriy arxivida mavzuga oid maqolalar va internet ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada arxiv tadqiqot, tarixiy va qiyosiy tahlil, xolislik, ma’lumotlarni tizimlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Fuqarolik jamiyati institutlari ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Siyosiy partiyalarga ayollarni keng jalb etish orqali ularning huquq va erkinliklarini ta’minlanishiga erishiladi, shu bilan birga boshqaruv sohasida bevosita va bilvosita ishtiroki ta’minlanadi[1]. Ayollar huquqlarini himoya

qilish borasida eng yaxshi faoliyat yurituvchi tashkilot siyosiy partiyalar tarkibidagi “Ayollar qanoti” harakati hisoblanadi.

2008-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib o‘tdi va ushbu ikki partiya negizida yangi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (O‘zMTDP) tashkil etildi. 2008-yil 11-avgustda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan qayta ro‘yxatdan o‘tgan (194-P-sonli guvohnoma). 2008-yilning 18-dekabrida O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi faol ayollarining umumiy yig‘ilishida partiyaning “Ayollar qanoti” tashkil qilingan[2].

Xotin-qizlarning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy bilimlarini oshirish, ma’naviy salohiyatini yuksaltirishni o‘zining asosiy maqsadi qilib belgilagan “Ayollar qanoti” viloyatlar bo‘yicha ko‘plab loyiha dasturlarini ilgari surib kelmoqda.

Buxoro viloyat xotin-qizlarning milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aql-zakovatini ulug‘vor va ezgu ishlarga yo‘naltirishda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Buxoro viloyat Kengashi “Ayollar qanoti” muhim rol o‘ynamoqda. Viloyat partiya Kengashining a‘zolari soni 2012-yil 1-yanvarda 8400 kishi bo‘lib, shundan 4523 nafar, ya’ni

53,8 foizi ayollar tashkil etgan bo'lsa, 2012-yil 1-dekabr holatiga ko'ra partiya a'zolari soni 9387 nafarga yetib, 5067 nafari ya'ni 55 foizini[3] xotin-qizlar tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. 2009-2012-yillar davomida xotin-qizlar qo'mitalari, nodavlat va notijorat tashkilotlar, uyushmalar, markazlar bilan hamkorlikda 450 dan ortiq tadbirlar tashkil qilindi. 2011-yil 190 ga yaqin[4], 2012-yilda esa 239 dan ortiq yosh avlodni jismoniy va ma'naviy barkamol voyaga yetkazish, jamiyat rivojida xotin-qizlarning o'rni, ularni siyosiy-huquqiy bilimlarini yuksaltirish, sog'lom va mustahkam oila mavzularida tadbirlar tashkil etilib ularda viloyatning 20627 nafar kishisi jalb qilindi hamda 126 marta respublika va mahalliy OAV larida yoritildi[3].

2012-yil mamlakatimiz mustaqilligining 21 yilligiga bag'ishlab, "Mustaqillikka tengdosh oilalar" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazilib, turmush qurganiga 21 yil to'lgan baxtli oilalarga turli xil sovg'alar topshirildi.

O'zMTDP Buxoro viloyati kengashida xotin-qizlar soni 2013-yilda 5576 nafarga yetib, umumiy a'zolarning 54,9 foizni[5], 2014-yilda 6222 nafar bo'lib, 54,5 foizni, 2015-yilda partiya a'zolari soni 12082 nafar bo'lib, shundan 6598 nafari, ya'ni 54,5 foiz o'sishga erishilganligini ko'rishimiz mumkin[6]. A'zolar sonining oshib borishi partiya tomonidan belgilangan dastur va lohiyalar samarali amalga oshirila borganligidan dalolat beradi.

Boy va sermazmun milliy an'analarni asrab-avaylash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilalarning mustahkamligini ta'minlash maqsadida 2013-2015-yillarda "Yuksak ma'naviyatli oila orqali –yuksak taraqqiyot sari", "Ayol borki, olam munavvar", "Donolik va tashabbuskorlik-siyosiy yetakchilik mezonini" "Ayolni ulug'lash –oilani, Vatanni, hayotni ulug'lash demakdir", "Sport-salamatlik garovi" mavzularida Buxoro shahar, Kogon shahar, Vobkent, Jondor, Olot, Qorako'l va Kogon tumanlarida 500 dan ortiq tadbirlar tashkil qilindi.

Inson ma'lum maqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ko'rsatish yo'li bilan jamiyatni o'zgarturuvchi kuchga aylanadi va sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratadi. Inson faqat tarixiy sharoit va uning mahsuligina bo'lib qolmay, balki shunday sharoitlarning yaratuvchisi hamdir. Ijtimoiy hayot har bir shaxsning o'z burchini ko'r-ko'rona bajarish emas, balki unga ogli munosabatda axloqiy tamoyillar asosida yondoshishni talab qiladi[7]. Bu borada O'zMTDP Buxoro viloyati Kengashi ham doimiy faol tadbirlar amalga oshirib kelmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va

O'zbekiston ekologik harakati vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda belgilangan ustuvor vazifalar asosida siyosiy partiyalar o'z faoliyatini tubdan ko'rib chiqish va bu faoliyatni yangicha amalga oshirish yo'lga qo'yilishi belgilandi[8]. Aynan shu kundan boshlab barcha siyosiy partiyalar kabi O'zMTDP ham o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

2017-yil O'zMTDP Buxoro viloyat kengashi hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 7 ming kishidan ortiqroq kishini qamrab olgan 400 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirildi[9]. Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalaridagi holatini yaxshilash, ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi o'rni kuchaytirish va ularning siyosiy huquqlarini oshirishni o'zining asosiy vazifasi sifatida belgilagan partiya "Ayollar qanoti" yanada faol harakat qila boshladi. Xususan, viloyatning Buxoro, Kogon shaharlari va Shofirkon, Romitan, Jondor, Qoravulbozor tumanlarida "Deputat bilan yuzma-yuz", "Onalar va bolalar davlat himoyasida", "Xotin-qizlar va yoshlar masalalarini hal etishda deputatning roli" mavzularida tadbir va davra suhbatlari tashkil qilinib, ularda 4551 nafar xotin-qizlar ishtirok etdi. 2017-yildan viloyat kengashi tomonidan uyushmagan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, ularning muammo va qiziqishlarini o'rganish maqsadida "Uyma-uy" muloqot loyihasi ilgari surildi. Shuningdek, yil davomida respublika partiya fraksiya a'zolariga parlament va partiya veb sayti orqali 1517 ta murojaat kelib tushib[10], shundan 63 tasi viloyat kengashiga yo'naltirilib, "Uyma-uy" loyihasi doirasida ko'rib chiqildi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va targ'ibot qilish, xotin-qizlarda o'zini o'zi anglash tuyg'usini mustahkamlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish borasida amaliy ishlar yildan yilga yuqori darajaga ko'tarilib kelmoqda. 2018-yilda "Deputat bilan yuzma-yuz" loyihasi doirasida 14 ta uchrashuv tashkil qilinib, 1069 nafar fuqaro bilan uchrashib muloqot qilgan, 2019-yilda 17 ta uchrashuv tashkil qilinib, 940 nafar fuqaro deputatlar bilan uchrashuv tashkil etildi[11]. Uchrashuvda jismoniy va yuridik shaxslar, xotin-qizlar va yoshlar murojaatlari, oilaviy ajrimlar, nizoli holatlar, xodim masalasi, qishloq hududidagi muammolar masalalari tinglanib, ularning 88 foizi ijobiy hal qilindi.

Viloyat Kengashi "Ayollar qanoti" va hamkor tashkilotlar tomonidan "Uyma-uy" loyihasi doirasida 2018-yil 331 xonadonga, 2019-yilda esa 404 xonadonga borib, xotin-qizlarga taalluqli masalalar qayd etilib, amaliy yordam berildi. "Uyma-uy" loyihasi ijrosi haqida quyidagi jadval orqali ma'lumot olish mumkin.

№	Muammolar	Hal qilinganlik ko'rsatgichlari		
		2018	2019	2022
1	Xotin qizlarni ishga joylashtirish	160	108	164
2	Nafaqa puli tayinlash bo'yicha	2	1	5
3	Kommunal soha	1	4	
4	Uy joyini ta'mirlash va uy-joy bilan bog'liq	6	10	53
5	Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish	11	3	15
6	Moddiy yordam	7	12	24
7	Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar	42	104	156

2020-2022-yillarda O'zMTDP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" ning "Xizmat –beminnat" loyihasi doirasida 45 ta kasb-hunar kurslariga 117 nafar xotin-qiz, 22 ta o'quv kurslariga 52 nafar iqtidorli xotin-qizlar jalb qilindi. O'quv kurslarida ishtirok etgan qizlar ularga berilgan e'tiborni oqlab, 2020-2021-o'quv yillarida 12 nafar xotin-qiz oliy ta'limning kunduzgi va sirtqi ta'lim yo'nalishlarida talabalikka tavsiya qilingan bo'lsa, 3 nafar xotin-qiz yo'llanma asosida talabaga aylandi. 2020-yil tashkil qilingan 276 ta ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar 793 marta OAV da yoritildi[12].

Xotin-qizlar o'rtasida milliy qadriyatlarini, huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish g'oyalari keng targ'ib qilish, ushbu maqsadlarni amalga

oshirishda xotin-qizlarga yo'naltirilgan partiya mafkurasi tizimini ishlab chiqishda faol ishtirok etishda ham "Ayollar qanoti" muhim rol o'ynamoqda.

2019-yildan "Ayollar qanoti" tomonidan "Ayollar daftari" va "Temir daftar" ga kiritilgan viloyat xotin-qizlari doimiy davra suhbatlari tashkil qilinib kelinmoqda. 2022-yil "Ayollar daftari"ga kiritilgan 205ta aholi xonadonlari o'rganilib, 121 ta muammoli masalalar ijobiy hal qilindi, 84 nafari esa "Ayollar daftari" dan chiqarildi[13]. Uyushmagan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zMTDP "Ayollar qanoti" partiya Dasturi[14] da nazarda tutilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda

yuksak bilim va malakaga ega bo'lgan faol, tashabbuskor xotin-qizlarning huquqiy va siyosiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yuksak salohiyatli, yangilikka intiluvchan xotin-qizlarga o'z iste'dodlarini namoyon qilishlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida "Donolik va tashabbuskorlik – siyosiy yetakchilik mezon" shiori ostida «XXI asr ayoli» ko'rik-tanlovi o'tkazib kelmoqda.

Xotin-qizlar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishda "Ayollar qanoti"ning faol a'zolari shaxsiy namuna bo'lib kelishmoqda. Jumladan, Rahimova Umida Erkinovna 2008-yil "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti, Mustaqillikning 25 yilligi ko'krak nishoni, Mustaqillikning 30 yilligi ko'krak nishoni, Konstitutsiyaning 30 yilligi ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Partiyaning yana bir faol a'zosi O'rayeva Darmonoy Saidahmedovna 2021-yil "Do'stlik" ordeni va Mustaqillikning 30 yilligi ko'krak nishoni kabi e'tirofga sazovor bo'lgan. Huseynova Abira Amanovna IV chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati deputati etib saylangan bo'lib, 2021-yil "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Xulosa. O'zMTDP Markaziy kengashi ish rejasining 16-bandi bilan tasdiqlangan "Xizmat - beminat" loyihasi doirasida "Ayollar qanoti" tomonidan xotin-qizlarni bepul kasb-hunarga o'rgatishga qaratilgan, "Ustoz-shogird" an'alarini rivojlantirish maqsadida mahallalarda istiqomat qilayotgan "Temir daftari" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan, vaqtincha ishsiz xotin-qizlar qo'shimcha bepul kasb-hunarga o'rgatilmoqda. Unda o'quv kurslari (1 oylik, 3 oylik, 6 oylik hamda 1 yillik muddatlarda) tashkil qililib, Respublika va xalqaro tanlovlar g'oliblari, shu bilan birga ko'ngillilar tomonidan tikuvchilik, to'quvchilik, milliy liboslarga bezak yasash, matoga gul bosish, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, milliy qo'g'irchoqlar yasash, biserdan suvenir buyumlar yasash, pazandachilik, karving, qandolatchilik, shirapazlik, milliy taomlar tayyorlash, sartaroshlik, hamshiralik, dizaynerlik, naqqoshlik kabi kasb-hunarlar o'rgatilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Nazarova, M. (2021). O'zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini hal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat tamoyillari. *Scientific progress*, 1(6), 1275-1279.
2. Milliy tiklanish demokratik partiyasi (mt.uz) // [OtuwtioEDsOllRC2YmFH.pdf](https://otuwtioEDsOllRC2YmFH.pdf) (mt.uz)
3. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2012-yil ma'lumoti
4. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2011-yil ma'lumoti
5. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2013-yil ma'lumoti
6. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2015-yil ma'lumoti
7. Qahhorova M. Oila muhiti barqarorligida ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosi//*Islom tafakkuri*. 2021-2-son. <https://iiau.uz/oz/news/1130>
8. <https://xs.uz/uz/post/siyosij-partiyalarning-hisobotlari-eshitildi-va-qonun-lojihalari-korib-chiqildi>
9. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2017-yil ma'lumoti
10. <https://uzreport.news/politics/2017-yilda-ozbekiston-milliy-tiklanish-dp-fraksiya-azolariga-parlament-va-partiya-rasmiy-v>
11. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2019-yil ma'lumoti
12. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2020-2021-yil ma'lumotlari
13. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demoktarik partiyasi Buxoro viloyati "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2022-yil ma'lumotlari
14. <https://mt.uz/partiya-nizomi> // Ўзбекистон "Миллий тикланиш" демократик партиясининг устав ва дастури Ўзбекистон "Миллий тикланиш" демократик партиясининг 2019 йил 1 ноябрдаги VI Съездида тасдиқланган (2019 йил 22 декабрда бўлиб ўтган Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларига сайловларда Ўзбекистон "Миллий тикланиш" демократик партиясидан кўрсатилган номзодлар учун) (янги таҳрирда)



UDK:94(575/146)

Nurbek TOLIBOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: (tolibov.nurbek@mail.ru,

Toshkent davlat texnika universiteti professori R.E.Xoliqova taqrizi asosida

HISTORY OF GEOGRAPHICAL RESEARCHES IN 1939-1945 IN CENTRAL ASIA

Annotation

The article describes the scientific and practical importance of geographical research conducted in 1939-1945, as well as the comprehensiveness of geographical research, and the history of scientific research conducted in the field of natural geography, hydrology, cartography, as well as geological sciences.

Key words: Tashkent State University (SAGU), Academy of Sciences of the USSR, FA SOPS of the USSR, South-East Kyzylqum, Mangyshlok Peninsula, Ustyurt Plateau, researches of N.L.Korzhenevsky, R.S.Lobach, O.Yu.Poslavskaya.

ИСТОРИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В 1939-1945 ГГ

Аннотация

В статье описывается научное и практическое значение географических исследований, проведенных в 1939-1945 гг., а также комплексность географических исследований, история научных исследований, проведенных исследований в области естественной географии, гидрологии, картографии, а также геологических наук.

Ключевые слова: Ташкентский государственный университет (САГУ), АН СССР, ФА СОПС СССР, Юго-Восточный Кызылқум, полуостров Мангышлок, плато Устюрт, исследований Н.Л.Корженевского, Р.С.Лобача, О.Ю.Пословская.

1939-1945 YILLARDA O'RTA OSIYODA OLIB BORILGAN GEOGRAFIK TADQIQOTLAR TARIXI

Аннотация

Maqolada 1939-1945 yillarida olib borilgan geografik izlanishlarning ilmiy va amaliy ahamiyati hamda geografik tadqiqotlarning keng qamrovli ekanligidan kelib chiqib, tabiiy geografiya, gidrologiya, kartografiya, shuningdek geologiya fanlari doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarning tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent Davlat universiteti(SAGU), SSSR Fanlar Akademiyasi, SSSR FA SOPSi, Janubi-Sharqiy Qizilqum, Mang'ishloq yarim oroli, Ustyurt platosi, N.L.Korjnevskiy, R.S.Lobach, O.Yu.Poslovskaya tadqiqotlari.

Kirish. Geografiya sohasi uzoq davrdan beri insonlarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi hamda jamiyatning tabiatga munosabatini optimallashtirish muammolarini hal etishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanib keldi. 1939-1945 yillar mobaynida geografik tadqiqot ishlarning amaliy yo'nalishi yanada aniqlashdi va bevosita mudofaa manfaatlariga qaratildi. Aynan shu nuqtai nazardan ham shu yillardagi geografik tadqiqotlar tarixini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Urush yillarida O'rta Osiyoning boy tabiiy geografiasini o'rganish va ilmiy asosda tadqiq etish ishiga ko'plab taniqli olimlar o'z hissalarini qo'shib keldilar. Jumladan, V.A.Jorjio rahbarligida «O'rta Osiyodagi sinoptik jarayonlar» nomli kapital monografiya yaratildi. Shuningdek, V.A.Bugaevning «O'rta Osiyo iqlimini hosil qiluvchi meteorologik omillar» (1943), «O'rta Osiyo va Qozog'iston iqlimi» (1945) asarlari bosilib chiqdi. V.A.Bugaev bilan B.A.Jorjioning O'rta Osiyo va unga tutash hududlar (O'rta Sharq va Hindiston) sinoptik meteorologiyasi va iqlimiga oid original tadqiqotlari xalqaro ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda zamonaviy tarix fanida tan olingan tarixiylik, ob'ektivlik tamoyillari hamda tizimli qiyosiy tahlil, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Urush yillarining ehtiyojlari geologik va geografik tadqiqotlar mavzularini amaliy maqsadlarga moslashtirish va yanada jonlantirishni taqozo etdi. Respublikamiz Fanlar akademiyasi institutlari olib borgan ilmiy tadqiqotlar natijasida foydali qazilma konlar,

irrigatsiya inshootlari bunyod qilib, qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlanishiga imkoniyat yaratdilar. Ushbu yillarda o'lkamiz tabiatini tuproq-geografik, biogeografik va kompleks landshaft-geografik yo'nalishlarda o'rganish davom etdi. O'z navbatida, o'lkaning tekislik qismida yaylov resurslarini aniqlash, baholash, kartaga tushirish, yer osti mineral boyliklarini izlash yuzasidan juda katta tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda bir qator natijalarga erishildi.

Universitetning N.L.Korjnevskiy va N.G.Mallitskiy kabi yetakchi geograflari O'rta Osiyo ayrim rayonlarining tabiiy geografik tasvirini yozishdan tashqari gidrologik-glyasiologik tadqiqotlarini ham davom ettirdilar. Yosh olimlardan O.Yu.Poslovskaya, N.D.Dolimov, L.Vasileva va boshqalar regional geografik va geomorfologik mavzular ustida ishladilar[1].

1941 yil N.L.Korjnevskiyning O'rta Osiyo tabiiy geografiasiga oid kitobi bosilib chiqdi. Bu kitobda olim XX asrning 40-yillarigacha o'tkazgan ko'p yillik geografik tadqiqotlariga ma'lum darajada yakun yasaydi. N.L.Korjnevskiy mazkur yillarda O'rta Osiyo kartografiyasi tarixi borasida ham qator ilmiy ishlarini chop ettirdi. Olim Fanlar akademiyasi O'zbekiston filialining kartografik byurosida saqlangan O'rta Osiyo hududlari aks ettirilgan eski 12 ta kartani topib o'rgandi[2]. Keyinroq ham olim bu boradagi ishlarini yana davom ettirib, XVIII asrda O'rta Osiyoning kartografik va geografik tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar jamlangan maqolasini – Fanlar akademiyasi axbortnomasida e'lon qildirdi[3].

Urush yillarida SAGU geograflari ham muhim tadqiqotlar o'tkazdilar. Geograflar safiga Moskva olimlaridan

M.G.Kadek, V.M.Chetirkin, G.N.Cherdansev, A.N.Rakitnikov kelib qo'shildilar.

Kompleks tabiiy-geografik rayonlashtirish – tabiiy geografianing eng muhim birinchi darajali muammolaridan biri hisoblanadi. Tabiiy-geografik rayonlashtirishning ilmiy jihatdan puxta asoslangan prinsipi, uslubi va taksonomik birligi (sxemasi) faqat ilmiy ahamiyatga ega bo'lishdan tashqari xalq xo'jaligining turli sohalariga uchun ham amaliy ahamiyatga egadir. Chunki tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilib, o'zgartirish, xalq xo'jaligini intensiv rivojlantirish, xalq xo'jalik tarmoqlarini ixtisoslashtirish eng avvalo hudud tabiati ichidagi tafovutlarni har tomonlama va ilmiy jihatdan puxta bilishni taqozo etadi. Zero geografiyada rayonlashtirish – tabiatda ob'ektiv mavjud bo'lgan hududiy tabiiy geografik birliklarni aniqlash, ajratish va chegaralash jarayoni hisoblanib, tabiiy geografik rayonlashtirishning asosiy vazifasi hududni o'xshash va farq qiluvchi belgilariga qarab, ularni mustaqil qismlarga bo'lishdan iboratdir. 1943 yilga kelib O'rta Osiyoning ekologik tamoyillar asosida majmualiy geografik rayonlashtirish konsepsiyasi va sxemasi yaratildi.

V.M.Chetirkin 1943 yil O'rta Osiyoni geografik ta'riflash va rayonlashtirishga bag'ishlangan "Turon fatsiyasi" nomli asarini yozib tugatdi. V.M.Chetirkinning asarida o'lka tabiatiga oid to'plangan juda katta ekologik va geografik tarixiy ilmiy merosni chuqur nazariy tahlil qilish va umumlashtirish asosida O'rta Osiyoning haqiqiy rayonlashtirish na'munasini yaratdi. V.M.Chetirkin monografiyasining birinchi qismida 1880-1940 yillar davomida o'lkaning tabiiy rayonlashtirishga oid yaratilgan barcha asarlarni chuqur tanqidiy tahlil qildi. Olim asarning ikkinchi qismida A.A.Grigorevning tabiiy geografik jarayon haqidagi ta'limotiga hamda O'rta Osiyo tadqiqotchilarining ilmiy merosiga tayanib, hududlarlar ekologik rejimi haqidagi g'oyani olg'a suradi. Xullas, V.M.Chetirkinning bu asari va urush yillari yozgan maqolalari O'rta Osiyo tabiiy geografiasining dolzarb masalalarini tadqiq qilishga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi[4]. V.M.Chetirkinning O'rta Osiyo haqidagi regional-landshaftshunoslik konsepsiyasi o'z davrida S.V.Kalesnik, E.M.Murzaev, Yu.G.Saushkin, N.A.Gvozdetkiy va L.N.Babushkin[5] kabi geograflar tomonidan yuksak baholandi. Landshaft haqidagi ta'limot rivojlanib borib, tabiiy geografiyadagi alohida ilmiy yo'nalishni hosil qildi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar keyinchalik son jihatidan ham, sifat jihatidan ham o'sdi va XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, landschaftshunoslik deb nom olgan yangi fanga aylandi. Landschaftshunoslik ham kompleks tabiiy geografiyada bo'lgani kabi umumiy landschaftshunoslik va regional landschaftshunoslikka bo'linadi. Umumiy landschaftshunoslik yerning landschaft sferasining tuzilishi, dinamikasi, rivojlanishi, mavjudlik faoliyati kabi umumnazariy masalalar bilan shug'ullanadi.

O'rta Osiyo Davlat universitetining o'lka cho'llarini o'rganish yuzasidan olib borgan tadqiqotlari orasida Janubiy Qizilqum va Ustyurt ekspeditsiyalari ilmiy natijalarining ahamiyati jihatidan alohida ajralib turadi.

Ustyurt kompleks ekspeditsiyasi 1944-1945 yillar O'zSSR FA bilan hamkorlikda uyushtirildi. Bu ekspeditsiyada geograflar – N.L.Korjenevskiy, R.S.Lobach va O.Yu.Poslovskaya ishtirok etdilar. Ekspeditsiya natijalari ikki katta asarda jamlandi[6]. Ekspeditsiya materiallarida Janubi-Sharqiy Qizilqumning chegaralari, landschaftlari va geografik o'rganilganlik darajasi bayon qilindi. Qoraqalpoq Ustyurtining tabiatiga ko'ra haqiqiy cho'l ekanligi, uning shimoliy cho'llar bilan janubiy cho'llar o'rtasida «oralik» o'rin tutishi,

landshaftlarining nihoyatda mozaikligi haqidagi xulosalar o'lka geografiasiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi.

1944-1945 yillar SSSR FA SOPS [7] va Geografiya instituti ham Mang'ishloq yarim oroli bilan Ustyurt platosida kompleks ekspeditsion tadqiqotlar olib bordi. Ekspeditsiya bu hududlarning relefi va tuproq-o'simlik resurslari haqida ayniqsa qimmatli ma'lumot to'pladi.

Mazkur davr O'rta Osiyoning tog'li qismida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xomashyo turlarni izlab topish, o'simlik va suv resurslarini o'rganish dolzarb masalalar edi. SSSR FA olimlari va mahalliy olimlar ishtirokida temir rudasi bazasi sifatida Chotqol, Qurama tizmalari, Mo'g'ultov, Surenota va Sangzor-Zomin rayonlaridagi konlar batafsil tekshirildi. Bu davrda Qozog'iston va O'zbekistonning yer osti boyliklari ayniqsa katta va istiqbolli ekanligi ma'lum bo'ldi. O'zbekistonning temir rudasi, kokslanuvchi ko'mir, flyus va binokorlik materiallarga boyligi aniqlandi[8].

O'zbekiston tog'larida va tog'oldi mintaqalarida ham ko'mir zaxiralari mavjud bo'lib, aholini, ishlab chiqarishni energiyaga bo'lgan ehtiyojini ma'lum qismini ta'minlab kelgan. 1940 yilda Ohangaron vodiysida O'zbekistonda yirik ko'mir koni tashkil topdi va ko'mir sanoatiga asos solindi. Ikkinchi jahon urushi davrida nemis-fashist qo'shinlari vaqtincha Donbass va Moskva atrofidagi ko'mir konlarini bosib olgan paytda Angren ko'mir koni SSSR hududidagi mudofaa uchun xizmat qiluvchi zavodlarni yoqilg'i bilan ta'minlashga katta hissa qo'shdi[9].

Urush yillari A.S.Uklonskiy va V.I.Popov rahbarligidagi geologiya kafedralari O'zbekistonning o'z qora metallurgiasini yaratish tashabbusi bilan chiqib temir rudasi va magnetit konlarini geoximiyaviy-mineralogik jihatdan tekshirdilar. Bundan tashqari, metallurgiyada foydalaniladigan qum, slanets, grafit konlari o'rganildi.

L.N.Babushkin O'zbekistonning, P.I.Koloskov Qozog'istonning ob-havo va iqlim sharoitini qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan baholash bilan shug'ullandilar[10].

Tuproqlar geografiasini jihatidan O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirishda uning hududi Turon provinsiyasining bir qismi hisoblanib, tabiiy majmualari komponentlarining farqi uning tekislik qismi bilan tog'oldi va tog'larida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston tuproqlarining geografik tarqalishini tekislik provinsiyasida kenglik, tog'oldi tog' provinsiyasida balandlik mintaqalari bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir[11]. O'lka tuproqlari geografiasini o'rganish yuzasidan ham muhim tadqiqotlar olib borildi (M.A.Glazovskaya, A.N.Rozanov, S.A.Kudrin, M.A.Orlov, U.U.Uspanov, I.I.Sinyagin, E.N.Blagoveshchenskiy, N.V.Kimberg, B.V.Gorbunov, S.A.Shuvalov, M.A.Pankov va b.) [12].

Xulosa. O'rta Osiyoda urush yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar kompleks geografik xarakteri va ilmiy g'oya hamda umumlashmalarga boyligi jihatidan alohida ajralib turadi. Mazkur davrda ilmiy tadqiqot ishlarining amaliy yo'nalishi yanada aniqlashdi va bevosita mudofaa manfaatlariga qaratildi. O'rta Osiyo tabiatini o'rganish va tabiiy resurslarini aniqlash borasidagi tadqiqotlar jadal davom etdi. Ushbu davrning ehtiyojlari tufayli o'lkaning mineral va o'simlik boyliklarini aniqlash hamda baxolashda muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Shuningdek, bu pallada kompleks va tarmoq geografik ekspeditsiyalar uyushtirilib, sohaga doir katta faktik ma'lumotlar to'plandi. Tabiiy geografiyada metodologik ahamiyati muhim deb hisoblangan bir qator tushunchalarga jumladan, tabiiy geografik kompleks, landschaft, tabiiy geografik komponent, landschaft hosil qiluvchi omillar va jarayonlarga oid tushunchalarga aniqliklar kiritildi.

АДАБИЁТЛАР

1. Раҳимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1982. – Б. 178.

2. Корженевский Н. О старинных картах, хранящихся в Узбекском филиале Академии Наук СССР // Известия Узбекского филиала Академии наук СССР. 1941, №3. – С. 67.
3. Корженевский Н.Л. К истории развития картографии и географических представлений о территории Средней Азии и Узбекистана в XVIII веке // Известия АН СССР. Вып. 1. – Ташкент, 1949. – С. 46-53.
4. Рахимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. – Б. 181.
5. Мурзаев Э.М. Схема физико-географического районирования Средней Азии // Известия АН РУз, серия география, 1953, № 6; Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекистана. Труды ТашГУ. Вып. 231. – Ташкент, 1964. – С. 118.
6. Коровин Е.П, Гранитов И.И. и др. Каракалпакский Устьюрт в перспективе его хозяйственного освоения // Труды САГУ, нов. сер. том II. Биология, 1945.
7. Ишлаб чиқарувчи кучларни ўрганиш совети (География соҳасини ўрганувчи махсус институтлардан бири).
8. Рахимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. – Б. 178.
9. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари (ўқув қўлланма). – Тошкент, 2011. – Б.80.
10. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекистана // Труды ТашГУ. Вып. 231. – Ташкент, 1964. – С. 118.
11. Ходжиматов А, Холмуродов Ш. Тупроклар географияси. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2018, – Б. 106-108.
12. Рахимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. – Б. 181.



Rayxon URALOVA,

O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" fakul'teti

o'quv ishlari bo'yicha bo'yicha dekan o'rinbosari

O'zbekiston Respublikasi Fundamental kutubxonasi direktori Z.Berdiyeva taqrizi asosida

ESTABLISHMENT OF THE FIRST HIGHER EDUCATION INSTITUTION AND LIBRARY IN TURKESTAN

Annotation

The scientific article covers the foundation of the Turkestan People's Library, then the Turkestan State University (now the National University of Uzbekistan) and its library, as well as the stages of development in the early years.

Key words: Jadidism, the idea of a nation, spreading enlightenment, cataloging, inventory, bibliographic classification, universal decimal system, subscription, reading room, compulsory copy.

ОБРАЗОВАНИЕ ПЕРВОГО ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ И ЕГО БИБЛИОТЕКИ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В данной статье освещены вопросы организации и этапы развития Туркестанского народного университета, национальный университет Узбекистана и его библиотеки.

Ключевые слова: джадидизм, общенациональная идея, просветительство, каталогизация, инвентаризация, библиографическая классификация, универсальная десятичная классификация, абонемент, читальный зал, обязательный экземпляр.

TURKISTONDA TO'NG'ICH OLIY TA'LIM MUASSASASI VA KUTUBXONASINING TASHKIL TOPISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston xalq dorulfununi, so'ngra Turkiston davlat universiteti (Hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning va uning kutubxonasining tashkil topishi va dastlabki yillarda rivojlanish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, umummillat g'oyasi, ma'rifat tarqatuvchilik, kataloglashtirish, inventarizatsiya, bibliografik tasnif, universal o'nlik tizim, abonement, qiroatxona, majburiy nusxa.

Kirish. O'zbekiston Milliy universitetining axborot-resurs markazi 1918-yilda tashkil topgan Turkiston musulmon xalq dorulfunini tashkil topishi bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, 1918-yilning bahorida (aprel-may oylarida) Turkistonda yevropacha andozadagi oliy ta'limni shakllantirish borasida dastlabki qadamlar qo'yildi. Unga qadar ham XX asr boshidan milliy ziyolilar, ya'ni jadidlar Toshkentda universitet tipidagi oliy o'quv yurtini ochish zarurligini ta'kidlab kelishar edi. 1909-yil 12-mayda Toshkentlik taraqqiyparvarlar tomonidan tashkil etilgan "Jamiyati hayriya"ning Nizomiga ko'ra uning muassislari Toshxoji Tuyuqboyev, Nizomiddin Xusainov, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Adurashidxonov, Bashirulla Asatillaxo'jayevlar viloyat hududidagi nochor muhtoj musulmonlarning moddiy ahvolini yaxshilash jumladan, yoshlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxona, ambulatoriya, choyxona, oshxona, yotoqxonalar ochishdan tortib, yoshlarni maktabda o'qitish, so'ngra oliy tahsil uchun chet ellarga yuborishgacha bo'lgan masalalarni ko'zda tutar edi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1910-yillarda ushbu jamiyatning yordami bilan bir guruh yoshlar Ufadagi "Oliya", Orenburgdagi "Husayniya" madrasalarida o'qiganlar. Madrasalarda o'qiganlar orasida Mo'minjon Muhammadjonov (1883-1964), Lutfulla Olimiy (1893-1963), Mirmuhsin Shermuhammedov (1895-1929), Abdulhay Tojiyev (1899-1938), Tohir Chig'atoy (1902-1984) lar bor edi [2].

1909-yil 18-iyulda Buxoro yoshlari "Tarbiyai atfol" nomli yashirin jamiyat tuzdilar. "Jamiyatning birinchi maqsadi Turkiyaning Istanbul shahriga o'quvchilar yubormoq chorasiga kirishmoq edi. Maorif uchun jamiyatning sirini ochmasdan e'timod qildig'i taraqqiyparvarlardan iona to'plar edi, jamiyatning ijtihodi soyasida bir qancha talaba Istanbulga yuborildi" [3].

1909-1913-yillarda Abdurauf Fitrat (1886-1938), Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li (1878-1968), Ato Xo'ja (1894-1938), Mazhar Burxonovlar Istanbulda o'qidilar. Istanbulda o'qiydigan buxorolik talabalar yildan-yilga ko'payib borgan. 1911-yilda ular 15 nafarga 1912-yilda 25 nafarga yetgan [3].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Germaniyadagi turli maktablarda ta'lim olgan ko'plab yoshlar turli oliy o'quv yurtlariga talabalikka qabul qilinganlar. Jumladan, Abdulvahob Murodiy, Birimjon Azim, Solih Muhammad Berlin Oliy qishloq xo'jaligi akademiyasiga qabul qilinganlar. Saydalixo'ja oliy texnika akademiyasining kimyo, Afzal arxitektura, Ahmadjon Ibrohim tog' muhandisi, Sultonbek, To'lagan Mo'min muhandis-elektrik, Bilol mashinasozlik fakultetlarida o'qiy boshladilar. Orifxon Ibrohim Bonn Oliy qishloq xo'jaligi maktabining suv muhandisi, Sobir Darmshtat Oliy texnika maktabining mashinasozlik, Ahmad Shukriy Berlin Gumboldt universitetining tarix-falsafa, Ahmad Naim, Shamsulbarotnim tibbiyot fakultetiga o'qishga kirdilar. Tohir Chig'atoy Geydelberg universitetining iqtisod, Abdulvahob Ishoq (O'qtoy) shu universitetning medisina fakulteti, Gulsum Muzaffar Berlin o'qituvchilar instituti talabasi bo'ldilar[2].

1920 yillar o'rtalarida Rossiyada ichki kurash bolsheviklar foydasiga o'zgarib boshlagach, ular millatlarga berilgan erkni tortib oldilar. Shulardan biri yoshlarni xorijiy mamlakatlarda o'qitish edi. Xorijiy oliy o'quv yurtlarini bitirib kelganlarga dastlab o'z salohiyatiga ko'ra ish berilgan bo'lsa, so'ngra ularga "Germaniya agenti", "Josus" singari tavqi la'natlar yopishtirilib, qatag'on qilish boshlandi. Qaytib kelganlarning katta qismi yasama ayblar bilan otib tashlandi, qolgan oz qismi esa qamoq va surgunda nobud bo'ldilar. Noiloj chetga qolib ketgan ba'zi yoshlar Germaniya, Turkiya singari mamlakatlarda yashab ushbu mamlakatlar taraqqiyoti uchun umrlarining oxirigacha xizmatlarini davom ettirishga majbur bo'ldilar [4].

Jadidlarning Chor hukumati davrida yo'lga qo'yilgan va inqilobning dastlabki yillarida u qadar qarshilikka uchramagan xorijda milliy kadrlar tayyorlash dasturi 20-yillarning ikkinchi yarmida sho'rolar hukumati tomonidan barbad qilindi.

- **Tahlil va natijalar.** Xorijda kadrlar tayyorlashning muvaqqat ekanligini, o'z universitetlarini ochmagunlariga qadar milliy kadrlar taqchilligini hal qilib bo'lmasligini, universitet tashkil qilish uchun sarmoya va mutaxassislar kerakligini ular bilardilar. Afsuski, XX asr boshlaridagi Turkistonda ushbu omillardan bittasi ham yo'q edi.

Turkistonda universitet tashkil etish, eng avvalo, millatning ko'ragini ko'tarish, bir paytlar jahon sahnasida o'z o'rniga ega bo'lgan, keyinchalik tanazzul tufayli asoratga tushib qolgan xalqning ko'zini ochish, jahonni va o'zligini tanishni, dunyoga qo'shilishi uchun zarur edi.

Jadidlar ushbu ehtiyojini chuqur anglagan holda uni umummillat darajasiga ko'tardilar. Ushbu g'oya "Tarjimon", "Oyna" gazeta va jurnallarida, "Ittifoqi musulmin", "Turon", "Sho'royi islomiy" uyushmalarida aks etdi va takomillashib bordi. XIX asrning oxiri, XX asr boshlaridagi Rossiya mustamlakachiligi zulmini boshdan kechirayotgan turkiy xalqlar uyg'onishining boshida turgan taraqqiyparvar ziyolilarni tarbiyalab yetishtirgan Ismoilbek Gasprinskiy (Gaspirali) 1885-yildayoq shunday yozgan edi: "Ovrupo bir keksa choldir, tajribasi ko'pdir. Ulug' yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o'rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz. Maktablarini, universitetlarini biz ham quramiz. Ammo aqllarimizni qancha yoritsak, yuraklarimizni ham shuncha haqqoniyat bilan to'ldirmoqqa harakat qilamiz. Ovrupoda nimani ko'rsak, yosh boladek olib yugurmaymiz. Es-hushli insonlardek "Bu nimadir?", "Oqibati nima bo'ladi?", "Vijdon va haqqoniyatga uyg'unmi?" deya aql tarozisiga tortib olamiz. Ovrupo madaniyatini mulohazasiz qabul qilish mumkin bo'lgan bir narsa bo'lsa edi, bu madaniyatga Ovruponing o'z vorisi socialistlar edi.

Yana bir takrorlayman: yangi fanlarni, kashfiyotlarni va ijodlarining foydali xizmatlarini inkor etmayman. Faqat islom olamining islohot va taraqqiyotga ehtiyoji bo'lgan bir paytda hech bir mulohaza qilib ko'rmasdan Ovrupoga taqlid etishini aqldan hisoblamayman[5].

Bu dorilfununlarga bir daraja ilm, din tahsil etmish talaba va avlodi sipoh qabul qilinib, tarix, jug'rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa zarur fanlar forsiy, turkiy, rusiy va fransuz tillarida o'qitilishi kerak. Ushbu dorulfununlarga bir daraja ilm, fan tahsil etmish talaba va avlodi sipoh qabul qilinib, tarix, jug'rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa zarur fanlar forsiy, turkiy, rusiy va fransuz tillarida o'qitilishi kerak. Ushbu dorulfununlarga muallimlik va mudarrislik qila oladigan ahli kamol bordir [5].

Behbudiyning "A'molimiz yoki murodimiz" nomli maqolasida quyidagilarni o'qish mumkin: "Aqchalik otalar, albatta, to'y va marakaga qizg'onmaganlaridek, bolani o'qitishga ham qizg'onmasalar kerakdur."

Bolalar uchun tarbiyatxona (pansiyon) ochmoq kerak. Va bu tarbiyatxonalar zamonga va ham milliy va diniy ruhda bo'lishi kerakdur. Bu tarbiyaxonalarni ochmoq uchun va hukumat maktablariga bola tayyor qilmoq uchun nashri maorif yoinki jamiyati xayriya va yoinki tarbiyati atfol jamiyati va yo o'zga ism ila, xulosa, jamiyatlar kerakdur. Toki bul jamiyatlar, xalqdan oqcha jamlab, millat bolalarini o'qutush va millatni oyondasi uchun kerak bo'laturg'on qozi, yani sudya, zakunchi ya'ni huquqshunos, injener ya'ni muhandis, muallim ya'ni zamona maktabdori, millatni homiysi va xodimi, ya'ni Davlat dumasiga deputat, milliy sanoatxonalarimizni isloh va ihyo etguvchi, ya'ni texnik tijoratxona va bankalarda bizga yordam berguvchi, ya'ni tijorat ilmini o'qigan kammirsant, shahar dumaxonalariga va

minbad Turkistonda ochilaturg'on zemstva idoralarida bizni tarafdin kirib va saylanib, biz uchun, din, mubayyini islom uchun, fuqaro uchun ishlayturg'on odamlarni yetishtirmoq kerakdur" [6].

XIX asrning so'nggi yillaridagi Turkiston o'lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy harakatlar podsho hukumatining muayyan davrlarida ham o'lkani har jihatdan tadqiq etish, boy tabiiy-iqtisodiy iqtidoridan zamonaviy asoslarda yanada samaraliroq foydalanish, ya'ni o'zlashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi universitet g'oyasi shakllangan edi.

1918-yilning 21-aprelida Toshkentning yangi shahar qismida A.V.Popov boshchiligidagi Turkiston davlat universiteti tashkil etilgan bo'lsa, 12-mayda Eski shaharda Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi Turkiston musulmon xalq dorulfununi talabalarni qabul qilishni boshladi.

Turkiston musulmon xalq dorulfununi uch bosqichli bo'lib, uning qoshida 5 yillik dorulmuallimin ham mavjud edi. Ishga taklif etilgan 299 muallimdan 22 kishi oliy diniy madrasalarni, 2 kishi Rossiya universitetlarini bitirgan edilar. Muallimlar orasida 20 ga yaqin turli soha vakillari, shu jumladan, taniqli shoirlar va yozuvchilar, darsliklar mualliflari bor edi. Jumladan, Abdusami qori Ziyoboyev, G'ulom Zafariy, Mo'minjon Muhammadjonov, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Sobirjon Rahimiy, Haydar Shavqiy, Majit Qodiriy, Abdulvahob Murodiy, Maryam Sultonova, Zaynab Shamsuddinova, Abdulla Rahimboyev, Shamsiddin Sharafiddinov (Xurshid), Sa'dulla Sharafuddinov, Ahmad Shukriy, Eshonxo'ja Xoniy kabilarni keltirib o'tish mumkin.

Dorulmualliminda Fitrat ona tili va adabiyotdan, Munavvarqori axloqdan, Abubakr Divayev etnografiyadan, Shamsi Kamol matematikadan, Burxon Habib siyosiy tarixdan, Ismoil Haqqi madaniyat tarixidan, Abdurahmon Ismoilov san'at tarixidan, Ibrohim Ismoilov didaktika va tibiatshunoslikdan, A.Proykova rus tilidan dars berdilar. Samarqandda dorulfunun sho'basini ochildi. Unga Turkistonda jadidchilik harakatining g'oyaviy rahnamosi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy rais, taniqli adiblar Hoji Muin-Mehriy, Saidahmad Siddiqiy Ajziy, A.Qurbiiy, Sh.Muxtoriy a'zo bo'ldilar.

Munavvarqori yetakchiligidagi faoliyat yuritgan musulmon Xalq dorulfununi haqiqiy ilmiy va oliy o'quv yurti, madaniyat va ma'rifat markazi edi. Bu uning umummarkaziy kutubxonasi tashkil etilib, unga taniqli turkistonshunos Abubakr Divayev mudir etib tayinlanganidan ham ko'rinib turar edi. Kutubxona tashkilotchilari butun Sharqqa oid kitoblarni to'plashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi[7].

"Biroq ruslashtirishni kundalik siyosat darajasiga ko'targan Sho'ro hukumati musulmon dorulfununi faoliyatiga yo'l bermadi. Besh yilga mo'ljallangan dorulmuallimin 4 oylik kursga aylantirildi va o'sha 1918 yilning sentyabr oyi o'rtalaridayoq tugatildi.

Rus tilini yetarli bilmagan mahalliy yoshlar oliy tahsildan mahrum bo'lib qolaverdilar. Turkistonliklarning chetda o'qishlariga 20-yillarining o'rtalarigacha tishini tishiga qo'yib chidagan Sho'ro hukumati Turkistonda milliy universitet ishlariga toqat qila olmadi. Shu sabab 1920 yildayoq Turkiston xalq universiteti Davlat universitetiga aylantirildi [2].

1918-yilning kuzida Turkistonda (mahalliy byudjetdan mablag' bilan ta'minlangan Xalq universitetiga qarama-qarshi o'laroq) Davlat universiteti tashkil etish to'g'risida markaziy hukumat bilan muzokaralar olib borish uchun Toshkentdan Moskvaga sharqshunos olimlar A.A.Semyonov va I.G.Belovdan iborat tashabbuskor delegatsiya jo'nab ketdi. Natijada 1918-yilning oxirida RSFSR Maorif Xalq Komissarligi Turkiston Davlat universitetini tashkil etish bo'yicha maxsus Tashkiliy qo'mita tuzdi. Mazkur qo'mita Moskva va Petrogradga yangi universitetning bo'lajak o'quv laboratoriyalari uchun maxsus asbob-uskunalar, kutubxona

uchun kitoblar, jurnallar va o'quv adabiyotlari yig'ish, shuningdek, Toshkentda ishlash uchun o'qituvchilarni jalb qilish bilan shug'ullangan maxsus byurolar tashkil etdi [8].

Tashkiliy qo'mitaning V.V.Stratonov, L.S.Berg kabi va boshqa a'zolari ham kitoblar va hatto katta-katta kutubxon kolleksiyalarini xarid qildilar. Xususan, A.P.Ostrouov kutubxonasidan adabiyot, tarix va ilohiyotga oid 2 mingdan ortiq jild, S.V.Chelnokovdan asosan san'atga oid, akademik V.Miller merosxo'rlaridan tilshunoslikka oid, professorlar Yegorov va L.I.Polivanov kutubxonalaridan matematika va falsafaga oid adabiyotlar olindi. Professor D.D.Pletnev va doktor K.G.Xrushchev tibbiyotga oid adabiyotlarni to'plash sohasida katta ishlarni amalga oshirdi. Professor Zelenov va V.V.Postnikovning boy kutubxonalaridan jarrohlik va teri kasalliklariga oid 6 ming jildga yaqin noyob kitoblar olindi.

Universitetni ta'xis etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari Moskva va Petrogradga bir yildan ortiq vaqt davom etdi va nihoyat 1920 yil 19 fevralda o'qituvchilar, kitoblar va asbob-uskunalar ortilgan birinchi eshelon Moskvadan Toshkentga jo'nab ketdi. 86 nafar o'qituvchi (43 professor hamda 43 privat-dosent va universitet ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislar) ning aksariyati bu yerga oilasi bilan keldi[9].

Dastlabki yillarda kutubxonaga o'z Ustaviga ega emasdi, u o'z faoliyatida kutubxonaning umumiy akademik ustaviga amal qilardi. Mazkur ustav qayta ishlanib, ma'lum qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilganidan keyin 1920-yil 8-fevralda RSFSR Maorif Xalq Komissarligi tomonidan tasdiqlangan edi. Ushbu ustav zamirida quyidagi tamoyillar yotardi: universitet kutubxonasi ishini yagona qoidalar bo'yicha rejali ravishda yo'lga qo'yish, ularda maxsus kutubxonalar ishlarini ahamiyatini oshirish, kutubxonalar xodimlariga foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishida ko'proq erkinlik berish, akademik kutubxonalar barcha ilm bilan shug'ullanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlash va nihoyat, bunda tarkibida kutubxonaga bo'lgan oliy o'quv yurti manfaatlariga rioya qilish kabilari edi. Ustav ma'lum darajada o'zgartirilgan tahrirda Turkiston davlat universitetining Boshqaruvi tomonidan 1921-yil 10-noyabrda qabul qilindi. Mazkur ustavga binoan kutubxonaga universitet kengashiga bo'ysunar edi.

O'z faoliyatining dastlabki yillarida kutubxonaga tashkiliy-xo'jalik masalalariga va kelgan adabiyotlarni tartibga solishga ko'proq e'tibor berdi.

"Kutubxonaga 1919-yilda 7 kishidan iborat bo'lsa, 1924-yilda 18 taga yetdi. Xodimlarning 5 tasi oliy ma'lumotli, 12 tasi o'rta ma'lumotli edi. 1920-yilning kuzigacha kutubxonaga Ya.P.Perelman, 1921 yil 1-iyulgacha M.I.Cosnovskiy, 1922-yil yanvaridan esa V.M.Komarovskiy mudirlik qildi, ilmiy kotib vazifasida M.V.Drozdov ish olib bordi" [10].

Kutubxonaning aksariyat xodimlari tajribali kutubxonaga mutahassislari bo'lib, Turkiston o'lkasining kutubxonalarida ishlagan edi. Turkiston Ommaviy

kutubxonasi 1918-yilda kutubxonachilik ishi sohasidagi yirik mutaxassis sifatida Ya.P.Perelmanni va universitet kutubxonasining boshqa xodimlarini kutubxonadagi fondlarni tartibga solish va joy-joyiga qo'yish yordam berish uchun taklif qildi.

1924-yilning yanvariga qadar hajmi 51940 jilddan iborat bo'lgan nashrlar tartibga keltirildi, inventarizatsiya qilindi va kataloglashtirildi. Kutubxonaga shu davrda juda ko'p bilim tarmoqlariga oid adabiyotlarga ega edi. 20 ming jilddan iborat tibbiy mazmundagi adabiyotlar universitet tibbiyot fakultetining kutubxonasiga berildi [8].

Kutubxonada adabiyotlar universitet xodimlari, o'qituvchilari, talabalari va xizmatchilariga hamda shahar fuqarolariga abonement bo'yicha uyiga va qiroatxonada foydalanish uchun berilar edi. Kutubxonaga va qiroatxonaga yakshanbadan tashqari har kuni ishlar edi. Kitoblar ertalab soat 9 dan 5 gacha berilardi, qiroatxonaga kech soat 9 gacha ishlardi. Kutubxonaning a'zolari soni mingga yaqin bo'lib, shulardan atigi 30 talaba mahalliy millatlar vakillari edi [8].

Ma'lumki, universitet tashkil topgan dastlabki kunlardan o'qituvchi professor-o'qituvchilari tarkibi, asosan, rus olimlaridan iborat bo'lganligi sababli, rus tilini bilmaydigan mahalliy aholi yoshlari uchun universitetda o'qish muammo bo'lib qolgan edi. Masalan, 1923-1924-o'quv yilida universitetga o'qishga kirgan 2047 talabadan faqat 51 nafariga mahalliy millat yoshlaridan iborat edi[8].

Bu jarayon, tabiiyki, anchagacha hech bir o'zgarishsiz davom etdi. 1927-yil 19-martda O'zKP(b)MK ning 5-Plenumida Akmal Ikromov shunday degan edi: "Ikki mingdan ortiqroq talabasi bo'lgan O'rta Osiyo universitetida o'zbeklar bor-yo'g'i 80 ta va milliy ozchilikni tashkil etuvchilardan esa atigi 64 ta ekan va yana u O'rta Osiyo universiteti emish! Moskva oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan o'zbek o'quvchilarining soni Toshkentdagidan ko'proqdir" [11].

- Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Turkiston xalq dorulfununi, so'ngra Turkiston davlat universiteti (Hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) ning va uning kutubxonasi oliy o'quv yurtlari tizimini muvofiqlashtiruvchi markazga aylanganiga qadar shovinistik to'siqlarga uchrab, murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdi. O'zbekiston milliy universiteti kutubxonalar ishlarini tashkil etish, yig'ma elektron katalog va ma'lumot bazasini yaratish, axborot-resurs markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tashkiliy-metodik jihatlarni kengaytirish muhim omil hisoblanadi.

Zero, bugungi kun kutubxonalarda milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishni ta'minlashga, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi, jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini oshirishni talab qilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar-2jildlik, 1-jild. T.: "Ma'naviyat", 1998 yil 322 bet.
2. Qosimov Begali. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. -Toshkent, "Ma'naviyat", 2002. 397 bet.
3. Ayniy S. Asarlar, 8 jildlik, 1-jild, T.: O'zdvashr, 1968.- 233 bet.
4. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. Toshkent, "Fan", 1991. 216 bet.
5. Gasprinskiy Ismoilbek (Gaspirali). Hayot va mamot masalasi. Toshkent "Ma'naviyat", 2006 yil 318 bet.
6. Maxmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar, Toshkent, "Ma'naviyat", 1997 yil 232 bet.
7. Xolboyev S. Milliy universitetning tarixiy ildizlari va tashkil topishi T.: "Sharq", 2003. 57 bet.
8. Kormilitsi N. A. Nauchnaya biblioteka Tashkentskogo gosudarstvennogo universiteta (1918-1993). T.: 1996. 99 str.
9. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: "Sharq", 2000. 712 bet.
10. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 2-qism. Darslik.T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.-308bet.
11. Ikromov A. Izbrannie trudi v trex tomah. T.I. Tashkent, "Uzbekistan", 1972.-260 str.



UDK:93

Ziyodullo ERGASHEV,
Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filiali assistenti
E-mail: ziyodullaziyodulla221@gmail.com

O'zMU dotsenti A. Xoliqulov taqrizi asosida

1867-1917 YILLARDA TURKISTONNING QO'SHNI DAVLATLAR BILAN SAVDO ALOQALARIDA MAHALLIY SAVDOGARLARNING TUTGAN O'RNI VA RIVOJLANISH TARIXI

Аннотация

1867-1917-yillarda Turkistonning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirishda mahalliy savdogarlarning olib brogan ijtimoiy-iqtisodiy hamda savdo-sotiqning rivojlanishi, tovar ayriboshlash, mahalliy savdogarlarning tutgan o'rni haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: savdo-sotiq, tovar ayriboshlash, xunarmandchilik, tikuvchilik, bo'yoqchilik, kapital, ipak, mato, shoyi, gazlama, kasamachilik.

РОЛЬ МЕСТНЫХ КУПЦЕВ В ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ ТУРЦИИ С СОСЕДНИМИ СТРАНАМИ И ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ В 1867-1917 ГГ

Аннотация

В развитии торговых отношений между Туркестаном и соседними странами в 1867-1917 годах рассматриваются социально-экономическое и торговое развитие местного купечества, обмен товарами, роль местного купечества.

Ключевое слова: торговля, товарооборот, ремесла, шитье, крашение, капитал, шелк, ткань, шелк, газировка, казначейство.

THE ROLE AND HISTORY OF DEVELOPMENT OF LOCAL MERCHANTS IN TRADE RELATIONS OF TURKESTAN WITH NEIGHBORING COUNTRIES IN 1867-1917

Annotation

In the development of trade relations of Turkestan with neighboring countries in 1867-1917, the brogan socio-economic and trade development of local merchants, Commodity Exchange, feedback on the role played by local merchants.

Keywords: trade, commodity splitting, merchandising, tailoring, dyeing, capital, silk, cloth, silk, gauze, gauze, cashmere.

Kirish. Mustaqillik yillarida o'zlikni anglash, jamiyatda tarixiy ongning shakllanish jarayonida tariximizga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Tadqiqotchilar tomonidan dolzarb mavzularda dissertatsiyalar himoya qilinish, ko'plab monografiyalar tayyorlandi. Vatan tarixshunosligida mamlakatimizning yaqin o'tmish tarixi, davlatchilik tarixi, xalqaro aloqalari ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Mazkur jarayonda Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston o'lkasi hayoti, yaqin qo'shni davlatlar bilan olib borilgan siyosiy hamda iqtisodiy aloqalari tarixi masalalarini tadqiq etish muhim sanaladi.

Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgach, ushbu mintaqada Sin davlati bilan olib boriladigan iqtisodiy aloqalar imkoniyati yanada oshganligini ko'rish mumkin. Rossiya savdogarlariga Turkiston o'lkasining ikki tomonida Xitoy bilan savdo olib borishi uchun yo'l ochilgan edi. Jumladan, gubernatorlik tarkibida bo'lgan Yettisuv viloyati hududlari bevosita Ili vodiysi (G'ulja - D.U.) bilan chegaradosh bo'lganligi rus savdogarlarining Xitoyning ichki rayonlariga kirishi uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchi tomondan Farg'ona vodiysining Sharqiy Turkiston mintaqasiga tutashib ketishi mazkur tarmoq orqali ham savdo qilish huquqini berardi. Buni yaxshi tushungan general-gubernator K.P.fon Kaufman o'sha vaqtda endigina tashkil topgan Yoqubbek bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. To'g'ri Rossiya hukmron doiralari Yettishahar davlatini rasmiy jihatdan mustaqil davlat sifatida tan olmagan bo'lsada, biroq savdo aloqalarini o'rnatish va bu borada shartnomalar tuzish Turkiston ma'muriyati uchun dolzarb sanalgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xususan, fon Kaufman Osiyo departamenti boshlig'i P.Stremouxovga yozgan xatida "... qulay payt topib Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbek bilan savdo masalasida munosabatlarni yo'lga qo'yish lozim. Men bu borada rus va qoshg'arlik fuqarolarni o'zaro savdo qilishi bo'yicha shartnoma shartlari loyihasini ham tayyorlab qo'ydim"- degan fikrlarni bayon qilib o'tgan. Darhaqiqat, chegara rayonlar hisoblangan Semipalatinsk, Sergiopol, Kopal va Verniy shaharlari iqtisodiy salohiyatini ko'tarish uchun Sharqiy Turkiston bilan bo'ladigan savdo-sotiq muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur fikrni Yetisuv harbiy gubernatori G.Kolpakovskiy topshirig'i bilan bilan borgan kapitan Reyntal ham tasdiqlab, Yetishahar Rossiya bilan savdo aloqalari olib borishdan manfaatdor ekanini ta'kidlagan. O'z o'rnida Yoqubbek ham savdo aloqalarini o'rnatilishini diplomatik munosabatlarni boshlanishi sifatida qarab, Qoshg'arga kelgan dastlabki savdogarlarni shahardagi eng zo'r karvonsaroylarga joylashtirgan holda o'zi ham rus tovarlarini qimmat baholarda oltin tangalar bilan sotib olgan. Albatta Sharqiy Turkiston mintaqasi strategik ahamiyat kasb etganligi bois, bu yerga inglizlar ham o'z e'tiborini qaratgani bejiz emas edi. Ular ham hududda savdoni jonlantirishdan manfaatdor bo'lgan. Chunki Hindistonda mustahkam o'rnatilgan Angliya Qoshg'ar orqali O'rta Osiyo bozorlarini ham egallash harakatida edi. Shu jihatdan bu yerda ruslarning faollashuvi ularni qoniqtirmagan. 1868 yili Hindiston orqali Qoshg'arga birinchi ingliz missiyasi kirib keladi. Biroq ular Yoqubbek bilan faqatgina o'zaro foydali savdo aloqalarini o'rnatishga kelishib olgan, xolos. Chunki o'rtada hech qanday shartnoma

imzolangan. Ili vodiysi Turkiston general- gubernatorligi tomonidan bosib olingach, Yoqubbek Qoshg'arga keluvchi rus savdogarlariga jiddiy bosim o'tkaza boshladi. Ba'zi hollarda ularni tovarlarini arzon narxlarda sotishga yoki savdo karvonlarini umuman hududga kirgizmaslik choralarini ham ko'rgan.

Tadqiqot metodologiyasi. 1867-1917-yillarda Turkistonning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirishda mahalliy savdogarlarning olib brogan ijtimoiy-iqtisodiy hamda savdo-sotiqning rivojlanishi, tovar ayriboshlash, tarixiylik analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy usullardan foydalanilgan. O'zaro Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligini rivojlantirish mazmuni va mohiyati, maqsadi va vazifalari, shakllari va usullari, tamoyillari va vositalari mufassal aniqlashtirilib, qiyosiy tahlil qilingan va mantiqiy xulosalar chiqarilgan. Buni yaxshi tushunib yetgan Turkiston ma'muriyati 1872 yilda Qoshg'ar bilan olib boriladigan savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida Yoqubbek davlati bilan do'stlik va savdo shartnomasini imzolashni taklif etadi. General-gubernator nomidan shartnomani podpolkovnik A.V. Qo'lbars 15 mayda imzolagan. Ushbu bitim 5 ta moddadan iborat bo'lib, unda rus savdogarlari uchun Qoshg'arda qulay shart-sharoitlar yaratib berish ko'zda tutilgan, shuningdek, olinadigan bo'lar miqdori belgilangan holda o'z navbatida yettishaharlik savdogarlarga ham bir xil imtiyozlar berilishiga kelishib olinadi [364]. Xususan, rus savdogarlari bu yerda savdo uyulari ochish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ularning xavfsizligini ta'minlashni Yettishahar tomoni o'z zimmasiga oladi. Ta'kidlash lozimki, ikki o'rtada olib borilgan savdo aloqalari bir maromda davom etmagan [1]. 1873 yili Qoshg'arga borgan rus savdogari Somovning 150 mol-mulkini talanishi o'rtadagi munosabatlarni keskinlashuviga sabab bo'ladi. 1876 yili Qo'qon xonligi tugatilib, gubernatorlik tarkibida Farg'ona viloyati tashkil etilishi Qoshg'ar bilan savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qildi. Albatta, rus hukmron doiralari mazkur mintaqada o'z ta'sirini kuchaytirish hamda bu yerda Angliya tovarlarini siqib chiqarish uchun harakat qilganligi aniq. Jumladan, Farg'ona harbiy gubernatori Skobelev general-gubernatorga yuborgan hisobotida "Qo'qon bilan Qoshg'ar o'rtasidagi savdo yiliga 30-40 ming tilla tangani tashkil qilganligi" ta'kidlab o'tadi. Qo'qondan - ipak, bo'yoq va bo'z mahsulotlari olib ketilgan bo'lsa, Qoshg'ardan - gilam, nashatir hamda choy mahsulotlari keltirilgan. Harbiy gubernator "Sharqiy Turkiston bilan savdoni rivojlantirish uchun butun tog'li hududlarni bosib olishimiz zarur", - deb ma'lumot beradi [2]. Shu yili rus elchilari boshlig'i sifatida Qoshg'arga borgan A.N. Kuropatkin ikki davlat o'rtasida 1876 yili olib borilgan savdo aloqalari haqida atroflicha ma'lumot beradi. Muallif O'sh uezdi orqali Qoshg'arga borgan va Issiqko'l uezdidan Uch-Turfonga jo'natilgan tovarlarga batafsil to'xtalib o'tgan. Xususan shu yili Qoshg'arga jami 53 356 rubllik mahsulot sotilgan. Bunda jami 16 xil tovarlar bo'lib, ular orasida katta miqdorda adras (30 480r), paxta, tamaki, temir, shakar va quruq mevalar eksport qilingan [366]. Shu yili Yettisuv viloyatidan Qoshg'arga savdo karvonlari yuborilmagan bo'lsada, Uch-Turfonga jami 6 xil turdagi mahsulotlar eksport qilinadi. Ular asosan to'qimachilik mollari bo'lib, umumiy summasi 5067 rublni tashkil etgan [3].

O'z o'rnida 1876 yili Turkistonga import qilingan savdo mollari e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash lozimki, Qoshg'ardan O'sh orqali o'lkaga kirib kelgan tovarlar turi va umumiy miqdori jo'natilgan savdo mollari nisbatan yuqori bo'lgan. Jumladan, 28 xil turdagi mahsulotlar jami 117 918 rublga baholangan. Eng ko'p olib kirilgan tovar - yuqori navli ipak bo'lib, uning summasi 25 964 rublni tashkil etgan. Undan keyingi o'rinda qo'y terisi, choy va boshqa buyumlar sotilgan. Darvoqe, ipakning sifatiga ko'ra, ya'ni yuqori, o'rta va past navdagi turlarini naviga ko'ra

baholashgan. Olib kirilgan tovarlarning katta qismi oktyabr, noyabr va dekabr oylariga to'g'ri keladi. Buni shu yili Yoqubbek bilan olib borilgan muzokaralarni natijasi hamda Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyatini tashkil etilishi bilan farg'onalik savdogarlarni o'lka savdo-sotiq sohasiga qo'shgan hissasi sifatida izohlash mumkin. Qo'qon Issiqko'l uezdi tomonidan Qoshg'arga karvonlar yuborilmaganiga qaramay, shu yili Yoqubbek davlati hududidan jami 40 513 rubllik 13 xil mahsulotlar import qilingan bo'lib, mazkur tovarlar Verniy shahri va G'ulja hamda Issiqko'l uezdlarida sotilgan [4]. Afsuski, 1877 yilda Sharqiy Turkiston qaytadan Sin imperiyasiga bo'ysundirilgach, ikki o'rtada savdo sohasida ma'lum bir kelishmovchiliklar kelib chiqadi. G'uljani qaytarilishini talab qilgan manjurlar Qoshg'arda bo'layotgan savdo munosabatlariga e'tibor qaratmaydi. Ikkinchi tomondan chegara demarkatsiyalarini o'tkazilmagani bois, oldin Qo'qon xonligiga qaragan, so'ngra Yoqubbek ixtiyoriga berilgan Ulug'chat qirg'izlari hech qanday kelishuvlarni tan olmasdan Sharqiy Turkistonga borayotgan har qanday savdo karvonlarini talar, bu sohada xitoyliklarga bildirilgan e'tirozlar javobsiz qoldiriladi [5].

XIX asr 80-yillarida Rossiya-Xitoy savdo va iqtisodiy aloqalarida Turkiston o'lkasi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy aloqalar o'sishining muhim garovi sifatida Buyuk ipak yo'li tarmoqlari mavjud bo'lganligini ta'kidlash zarur. Qadimdan xalqlarni yaqinlashtirish vazifasini o'tagan mazkur aloqa yo'li ushbu davrda ham aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Qoshg'arga boradigan yo'l O'sh uezdi chegaralaridan boshlanar edi. Aytish lozimki, bu yerda asosan bir necha tarmoq yo'llar mavjud bo'lgan. Jumladan, Farg'ona viloyati chegaralaridan Terek-Dovon orqali olib 152 boriladigan yo'lning umumiy uzunligi 194 verst, Toldiq-Dovon orqali borilsa - 237 verstni tashkil qilgan [6].

Tahlil va natijalar Sharqiy Turkistondan olib kelinadigan mahsulotlar tarkibida yerlik aholi tomonidan qo'lda ishlangan paxta tolasi, ipak, teri, gilam, kam miqdorda bo'lsa ham nashatir spirtlar asosiy rol o'ynagan. Qo'lda to'qiladigan matolardan quyidagi turlarining bozori chaqqon bo'lgan:

- 1) Bo'z matosi - Qoshg'arning turli qishloq va shaharlarida to'qilishiga qarab bir qancha nomlar bilan yuritilgan;
- 2) Tukuzak matosi (Tukuzak qishlog'ida tayyorlangan) - 18 tiyinga baholangan.
- 3) Artish matosi (Artish qishlog'idan) - uzunligi va kengligiga ko'ra 30, 22, 15 tiyindan baholangan.
- 4) Xon-ariq matosi - 5 turdan iborat bo'lib, kengligiga mos tarzda 60, 50, 40, 30, 26 tiyindan baholangan.
- 5) Obod matosi (Obod qishlog'idan) - uzunligi va kengligiga qarab 40, 30, 26, 20, 17 tiyindan sotilgan.
- 6) Qoshg'ar matosi - ikki turda bo'lib, uzunligi va kengligiga ko'ra 20-30 tiyindan baholangan [7].

Rossiyaning savdogarlari bevosita O'rta Osiyo bozorlarida savdo qilishga harakat qilganlar. Bunday sa'y-harakatlar Orenburgdagi ma'inuriyat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Orenburgga I.I. Neplyuyev (1742-1757) general-gubematorlik qilgan davrda O'rta Osiyoga tovarlarni jo'natish taqiqlari bekor qilingan. Shu maqsadda, 1749- vili I.I. Neplyuyev Xiva va Buxoroga 3 tning rubllik tovarlar bilan karvon jo'natgan. Ushbu savdo karvoni o'z tovarlarini sotib, katta foyda bilan orqaga qaytgan va Orenburgga 7 pud kumush olib kelgan. Bunday natijadan ruhlangan I.I. Neplyuyev yana Xivaga 20 ming rubllik tovar bilan savdo karvonini tayyorlagan. Ushbu savdo karvoniga Danila Rukavkin boshchilik qilgan. Ammo ushbu savdo karvoniga Xivada ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lganlar. Xiva xoni rus savdogarlarini uzoq vaqtgacha qabul qilmagan. Karvon bilan kelganlarni qo'riqchilar ixtiyorida saqlab, erkin savdo-sotiq olib borishlariga imkon bermaganlar. Boz ustiga xonning

ayonlari tomonidan 6 ming oltin rubllik tovarlarni tortib olganlar. Karvon boshlig'i 10 oy davomida Xivada ushlab turilgan, ammo savdo qilishga ruxsat berilmay. hamma tovarlari tortib olingan. Bundan xabar topgan I.I.Neplyuyev Orenburgda savdo qilayotgan savdogarlarni garov tariqasida ushlab qolgan. Shundan keyin Xiva xoni Rossiya savdogarlari tovarlariga pul to'lab, savdogarlarni Orenburgga qo'yib yuborgan. Orenburgga qaytgan D.Rukavkin o'zining Xivaga qilgan safari tafsilotlarini yozib, 1776- yili nashr ettirgan. D.Rukavkin ushbu safar xotiralarida Orenburg va Xiva orasidagi masola va qal'alar, xonlikka taalluqli qurol-aslaha hamda ulaming turlari, qaysi tillarga ehtiyoj ko'pligi, Xivada saqlanayotgan rus asirlari hamda o'zi bilan 40 yil avval asirga tushganlardan 4 nafarini ozod qilib, Orenburgga olib kelganini qayd etgan[8].

O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlarini rivojlan- tirshdan nafaqat Orenburg guberniyasi ma'muriyati, balki butun rus hukumati manfaatdor edi. Ammo shunisi borki, I.I.Neplyuyev tomonidan Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo munosabatlari rivojiga

qaratilgan, 10-20 ming rubllik kapitalni o'z ichiga olgan kompaniya tuzishga qaratilgan sa'y-harakat tegishli kadrlar tanqisligidan kelib chiqib amalga oshmay qolgan.

Xulosa va takliflar o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xonliklar davrida Rossiyada tayyor maxsulotlar bilan savdo qilish o'lkada ko'pdan-ko'p to'quvchilarni, tikuvchilarni, bo'yoqchilarni va boshqa minglab kasb egalarini ish va boshqa minglab kasb egalarini ish va daromad bilan ta'minlab turgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasi zabt etilishi jarayonida qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tiborni qaratadi. Mazkur jarayonda Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiqni tartibga solish muhim edi. Chunki Turkiston general-gubernatorligi mazkur mintaqa bilan Ili vodiysi hamda Qoshg'ar orqali savdo munosabatlarini amalga oshirgan. Albatta, Sin imperiyasidagi siyosiy vaziyat ushbu aloqalarni bir maromda olib borishga halaqit bergan edi. Jumladan, ma'lum vaqt Yoqubbek davlatini mavjud bo'lishi jarayonida gubernatorlik mazkur davlat bilan savdo bitimlarini tuzishga majbur bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Куропаткин А.Н. Кашгария. Кўрсатилган асар. – Б.330.
2. Куропаткин А.Н. Кашгария. Кўрсатилган асар. – Б.333.
3. ЎзРМА. 1-Фонд.32-рўйхат.366-иш.7-варақ.
4. ЎзРМА. 1-Фонд.29-рўйхат.545-иш.5-варақ.
5. ЎзРМА. 1-Фонд. 29-рўйхат.298-иш. 9-варақ
6. Терентьев М.А. Торговая политика Англии. Исторический очерк//Вестник Европы.1874. Т. 5, №9. – С.73-108.
7. Терентьев М.А. Туркестан и туркестанцы//Вестник Европы.1875. 5, №9-10; Т.6. №12.
8. Терентьев М.А. Россия и Англия в Средней Азии. -СПб.,1875;
9. Терентьев М.А. Россия и Англия в борьбе за рынки в Центральной Азии. – СПб., 1876.
10. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. С картами и планами. Тт. 1-3. – СПб., 1906.